

**“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yilning 6 oyi davomida jismoniy  
va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)ga 2024-yilning 6 oyi davomida jami **20 ta**, jumladan, **3 ta** yozma, **17 ta** elektron murojaatlar kelib tushgan, takroriy murojaatlar kelib tushmagan.

Murojaatlarning **4 tasi** jismoniy shaxslardan, **16 tasi** yuridik shaxslardan kelib tushgan.

Kelib tushgan murojaatlarning **10 tasi** gaz sotish masalasidagi, **6 tasi** tabiiy gaz uchun qilingan hisob-kitoblar yuzasidan, **2 tasi** mehnatga oid munosabatlar va **2 tasi** turli masalalarda kelib tushgan murojaatlarni tashkil qiladi.

Jamiyatga kelib tushgan murojaatlar viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahridan **6 ta**, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan **1 ta**, Xorazm viloyatidan **2 ta**, Namangan viloyatidan **4 ta**, Samarqand viloyatidan **5 ta**, Surxondaryo viloyatidan **1 ta**, va Farg‘ona viloyatidan **1 ta** murojaat kelib tushgan.

Shuningdek, mazkur murojaatlarning **2 tasi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan.

Murojaatlarning barchasi tegishli tartibda ro‘yxatga olinib nazoratga olingan va “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga asosan tegishli tartibda ko‘rib chiqilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash  
bo‘limi boshlig‘i



A. Niyazmetov